



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar–martida Jizzax viloyati YaHM hajmi joriy narxlarda 2 631,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 4,6 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 899,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMni shakllantirishda Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,4 % ni tashkil etdi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish


	Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-martga nisbatan % da
	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	
<b>I. YaHM</b>	<b>2 231,4</b>	<b>2 631,5</b>	<b>104,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2 103,4	2 579,8	104,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	128,0	51,7	105,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>2 103,4</b>	<b>2 579,8</b>	<b>104,5</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	829,2	1032,8	103,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	457,6	550,9	106,9
sanoat	278,1	333,0	107,3
qurilish	179,5	217,9	106,4
Xizmatlar	816,6	996,1	103,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	196,6	226,7	103,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	120,3	140,5	107,0
boshqa xizmat tarmoqlari	499,7	628,9	103,4



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 103,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 40,0 %), sanoat - 107,3 % (12,9 %), qurilish – 106,4 % (8,4 %), xizmatlar 103,8 % (38,7 %) ni tashkil etdi.

### 2020-yil yanvar – mart oylari uchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,0 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,6 % punktga ko'paydi va hisobot davrida 40,0 % ni tashkil etdi.


Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 0,4 % punktga kamaydi va hisobot davrida 21,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 0,2 % punktga kamaydi va hisobot davrida 38,7 % ni tashkil etdi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)

#### 2019-yil yanvar - mart



#### 2020-yil yanvar - mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 8,8 % (2019-yilning yanvar – mart oylarida 9,3 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa 5,4 % (5,7 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari 24,5 % (23,9 %) ni tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2019-yil  
yanvar-mart



2020-yil  
yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari